

TERMIZ ARXEOLOGIK MUZEYINING TASHKIL ETILISHI VA UNING FAOLIYATI

REJA

- 1. MUZEYNING TASHKIL ETILISHI HAQIDA MA'LUMOTLAR**
- 2. ILMIY-EKSPOZITSIYA, KO'RGAZMA ISHLARI VA FOND BO'LIMI HAQIDA**
- 3. MUZEYNING QO'LYOZMALAR BILAN ISHLASH SEKTORI**
- 4. TERMIZ ARXEOLOGIK MUZEYINING ZALLARGA AJRATILISHI VA ULARNING TAVSIFI**

1. MUZEYNING TASHKIL ETILISHI HAQIDA MA'LUMOTLAR.

Termiz arxeologiya muzeyida Termiz viloyatida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan topilmalar saqlanadi. Viloyat Arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi "Muzey-lar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida" gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 martdagi "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida" gi 98-sonli va 1999 yil 27 dekabrda "Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" gi 545-sonli qarorlari asosida tashkil etildi.

Arxeologiya muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 oktyabrda 08-10-168 sonli majlis bayonnomasiga muvofiq Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufiga o'tkazildi va Madaniyat ishlari vazirligining 2001 yil 24 oktyabrda 10-231 sonli buyrug'iga asosan vazirlik tizimiga kiritildi (endilikda Madaniyat va sport ishlari Vazirligi).

Arxeologiya muzeyining tematik-ekspozitsion rejasi 2001 yil 14 fevralda "O'zbekmuzey" jamg'armasining arxeolog olimlar ishtirokidagi kengaytirilgan majlisida tasdiqlanib, Madaniyat ishlari vazirligining muzey ishlari boshqarmasi tomonidan qayta tahrir o'tkazilib, Madaniyat ishlari vazirligiga taqdim etildi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining 2001 yil 24 oktyabrda 231-sonli Buyrug'iga asosan "Arxeologiya" muzeyining fondini yangi eksponatlar bilan boyitish ustida talay ishlar qilindi¹.

Arxeologiya muzeyining binosi "O'zqishloqloyiha" institutining ilmiy xodimlari tomonidan 100 ming eksponatlarni o'z zahiralarda saqlash imkoniyatiga ega bino sifatida loyihalashtirilgan.

Muzeyning kadrlar bo'limi uz faoliyatini 2001 yil boshlagan bo'lib, hozirgi kunda muzeyda 65 kishidan iborat shtatlar jadvaliga muvofiq 54 kishi ishlab kelmoqda. Muzey direktori - tarix fanlari nomzodi, dotsent, "Do'stlik" ordeni sohibi Ismoil Botirovich Temirov. Arxeologiya muzeyining ilmiy yo'nalishi tanlangan. 2005 yilgacha uzoqqa mo'ljallangan kontsepsiya ishlab chiqilgan.

Ilmiy xodimlar tomonidan yozilgan ilmiy yo'nalishdagi maqolalar jurnal va ro'znomalarda chop qilib borilmoqda. Jumladan, 2004 yil mobaynida I.Botirov tomonidan yozilgan «Qadimgi Termizda budda ta'limoti» maqolasi "Surxon tongi" ro'znomasida, «Fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari» maqolasi "Termiz oqshomi" ro'znomasida, I.Botirov va ilmiy xodim J.Jumaqulovlar tomonidan «Kim valiy bo'la oladi?» maqolasi "Termiz oqshomi" ro'znomasida, «Abulhasan Hujviriy (Julobiy)» maqolasi "Surxon tongi" ro'znomasida, "Xonliklar davri" bo'limi katta ilmiy xodimi Z.Xoliqov va ilmiy xodim H.Dedjimuratovlar tomonidan «Termiz va Chag'oniyonning o'rta asrlarda tarixiy geografiyasi» maqolasi «Moziydan Sado» jurnalida, «Termiz yirik hunarmanchilik shahri», «Arxetikturada islom madaniyatining aks etishi» maqolasi Termiz Davlat Universiteti professor-o'qituvchilarning 2004 yil fevral oyidagi ilmiy to'plamida, «Mustaqillikning 13 yilligi, ma'naviyat va ma'rifat», R.Boltaeva tomonidan yozilgan «Yaponiya oliy ta'lim tizimi», «JICA ko'magi bilan» maqolalari, ilmiy xodim J.Jumaqulov tomonidan «Misgarlik san'ati» maqolasi "Surxon tongi" ro'znomasida chop etildi. Bundan tashqari, I.T.Botirov, T.Annaev tomonidan 2002 yilda o'zbek tilida «Sharq» nashriyotida chop qilingan «Surxondaryo viloyati Arxeologiya muzeyi» deb nomlangan risola Germaniyaning Konrad Adenaur fondining Toshkentdagi vakolatxonasi homiyligida nemis tilida chop qilindi².

Ilmiy xodimlarning tarixiy davrlar bo'yicha tayyorlagan bukletlarning ba'zilarini ko'rsatib o'tamiz: Annaev T. "Surxon vohasi jahon madaniyat chorrahasida". Gulomov O., Xudoyberdieva N. "Surxon vohasi Tosh davri yodgorliklari" II qismli). "Surxon vohasida Bronza davri madaniyati" II qismli). Temirova D. "Ellinizm madaniyatining Arxeologiya muzeyi

¹ www.museums.uz sayti

² Сурхондарё – Термиз. (Илмий тўплам) – Т.: Шарк, 2004. –В.65.

zallarida ko'rinishi", «Yunon Baqtriya podsholigi" Annaev R "Shimoliy Toxariston devoriy suratlari", "Ilk o'rta asrlarda Bojxona inshootlari". Dedjimurodov H. "Termiz va Chag'oniyonning o'rta asrlarda tarixiy geografiyasi", "Termiz yirik xunarmanchilik shahri IX-XI asr", "Arxetikturada islom madaniyatining ask etishi", "Mis kosadagi bitiklar", "Buxoro xonligi", "Xiva xonligi", "Qo'qon xonligi". Choriev. M. Boltaev F. "Mis shokasadagi bitiklar", "Qadimda pul muomalasi" Jumaqulov J. "Abulhasan Hujviriyy va uning Kashf ul-Mahjub asari haqida", "Muzey qanday joy, u qachon paydo bo'lgan?», Abu al-Hasan Hujviriyyning "Kashf ul-Mahjub" asarining "Tasavvuf haqida", "Turli mamlakatlardagi oxirgi sufiylar", "Hakimiya tariqati", "Valiylik va karomat haqida" boblari bo'yicha bukletlar. O'zbekiston-Chexiya xalqaro ekspeditsiya boshlig'i sifatida "Tosh va bronza davri" bo'limi katta ilmiy xodimi Sh.Shaydullaev Sherobod tumanida joylashgan kushonlar davriga oid Jondavlattepa yodgorligida qazishma ishlarini olib bordi (2004, sentyabr-oktyabr). Natijada, yodgorlikning ark qismida "Saroy" o'rni ochildi³. U kvadrat shaklda bo'lib, 29x29 m, hozirgacha saroyning mudofaa devorlari ochildi. Yodgorlikning shahriston qismida shahar darvozasi ochildi. U burjlar (mudofaa istehkomlari) bilan mudofaa qilingan. Baqtriya arxeologiyasida antik davr uchun bu birinchi marta uchraydi, shu vaqtgacha antik davr shaharlari darvozasi o'rnatilmagan edi.

2. ILMIY-EKSPOZITSIYA, KO'RGAZMA ISHLARI VA FOND BO'LIMI HAQIDA

Arxeologiya muzeyi tasdiqlangan kontseptsiya va tematik ekspozitsion rejasiga ega. Arxeologiya muzeyining kontseptsiyasi va tematik ekspozitsion rejasini 2002 yil fevral oyida ishlab chiqilgan bo'lib, Respublika etakchi arxeolog olimlar ishtirokida «O'zbekmuzey» jamg'armasi ilmiy kengashida tasdiqlangan. Muzey ekspozitsiya ana shu kontseptsiya va ekspozitsion reja asosida tashkil etilgan. Muzey zallari bo'ylab ekskursiya o'tkazish uchun 3 tilda tayyorlangan ekskursovodlar matni muzey ilmiy kengashi, TerDU tarix fakulteti ilmiy metodik kengashi tomonidan 2003 yil 10 iyunda, viloyat madaniyat ishlari boshqarmasi tomonidan 2003 yil 19 iyulda tasdiqlanib, hozirgi kunda ekskursiya o'tkazishda foydalanib kelinmoqda.

2003 yil Arxeologiya muzeyi fondidagi eksponatlarning umumiy soni 27346 ta edi. 2004 yil davomida esa Arxeologiya muzeyi fondidagi eksponatlarning umumiy soni 27457 taga etdi. Shundan 19 824 tasi numizmatika fondiga tegishli tangalar bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib, muzeyda jami bo'lib, 8.500 ga yaqin arxeologik ashyoviy topilmalar, 19 824 dona numizmatika fondiga oid turli davrlarga xos tangalar mavjud. Arxeologiya muzeyi o'zining 3 yillik faoliyati davomida muzey fondini to'ldirish bo'yicha bir qancha ishlarni amalga oshirdi. 2004 yil davomida muzeyning ilmiy xodimlari Sh. Shaydullaev, Sh. Raxmonov, T. Annaev, Z. Xoliqovlar, shuningdek, R. Boltaeva, B. Toshpo'latov, B. Xamrayevlar Jarqo'ton, Chingiztepa, Fayoztepalarda o'tkazilgan arxeologik ekspeditsiyalarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Kampirtepa yodgorliklarida o'tkazilgan qazishmalar natijasida Arxeologiya muzeyi fondi bir qancha topilmalar bilan boyitildi. Termiz shahridagi «Shoymardon ota» qabristonidan topilgan eksponatlar ham shuningdek, Sherobod tumanining Jarqo'ton yodgorligidan topilgan 42 dona eksponat muzey fondiga keltirildi⁴

3. MUZEYNING QO'LYOZMALAR BILAN ISHLASH SEKTORI

Ilmiy xodim J.Jumaqulov tomonidan Abulhasan Hujviriyyning "Kashf-ul mahjub" asaridagi shayx Sulton Ahmad Xizraveyh, Shariqi Balxiy hamda Abuabdurahmon Hotam binniy Unvon al-Isim Balxiylarning xayot va faoliyati haqidagi bayonlarni forschadan o'zbek tiliga o'girilgan. Shu bilan birga «Misgarlik san'ati» maqolasi «Surxon Tongi» ro'znomasida, "Al-Hakim at-

³ Аннаев Т. Сурхон воҳаси жаҳон маданият чорраҳасида. // Халқ сўзи, 2009. № 12.

⁴ Ботиров И. Қадимги Термизда будда таълимоти // «Сурхон тонги» рўзномаси, 2004. № 4.

Termiziyning soʻfiylik tariqatida valiylik va karomat tushunchalari" (Kashf-ul Mahjub asari asosida) maqolasi TerDU ilmiy toʻplamida nashr etilgan. Bundan tashqari, viloyat radiosida "Istiqlol onlari" mavzuidagi eshittirishda muzey va uning faoliyati haqida oʻzbek va tojik tillarida maʼlumotlar berildi. Shuningdek, muzey ilmiy arxivida saqlanayotgan toshbosma va qoʻlyozma kitoblar ustida bir qator ishlar olib borilmoqda. Abu al-Hasan Hujviriyning "Kashf ul-Mahjub" asarining "Tasavvuf haqida", "Turli mamlakatlardagi oxirgi sufiylar", "Shayx Sulton Ahmad Xizraveyhning hayot va faoliyati", "Hakimiya tariqati", "Valiylik va karomat haqida", "Ibrohim Adham", "Ahmad binni Xizraviy", "Shaqiqi Balxiy", "Abuabdurahmon Hotam binni Unvon al-Isim Balxiy" mavzularidagi boblari fors tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilindi. Termiz 1999 yil noyabr oyida YUNESCO Bosh konferensiyasining Parijda boʻlgan 30-majlisida Markaziy Osiyoning qadim shahrlaridan biri Termiz shahrining 2500 yillik yubileyini 2001 yilda xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qilindi. Mazkur qaror munosabati bilan Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999 yilning 27 dekabrda "Termiz shahrining 2500 yillik yubileyini 2001 yilda oʻtkazish va unga tayyorgarlik koʻrish toʻgʻrisida" maxsus qaror qabul qilindi. Ushbu qarorlar asosida 2002 yil 2 aprelda oʻzining 2500 yillik yoshini nishonlagan Termiz shahri koʻplab katta voqealar va larzalarni boshidan kechirgan. Butun tarixi davomida Termiz Markaziy Osiyo xalqlari madaniy taraqqiyoti va oʻzbek xalqi davlatchiligi tarixida muhim rol oʻynagan. "Buyuk Ipak Yoʻli"ning asosiy chorrahalaridan biri sifatida dunyo sivilizatsiyasi rivojiga sezilarli darajada hissa qoʻshgan qadim shahardir. Buddizm dinining va u bilan bogʻliq boʻlgan memorchilik anʼanalarining Xitoy va Uzoq Sharq mamlakatlariga tarqalishi ham aynan Termiz orqali yuz bergan. Termizning geografik jihatdan qulay joylashishi, iqlimi va strategik mavqei koʻplab davlatlar va hukmdorlarning diqqat-eʼtiborini oʻziga tortar edi. Shuning uchun u Eron va grek, arab va moʻgʻul bosqinchilarining hujumlariga duchor boʻldi, Movarounnahr ichki qon toʻkishlarini boshidan kechirdi, mahalliy hokimlar zulmidan azob chekdi. Termiz istilochilarning olovli janglarida yonib ketar, kulga aylanar, qaddini rostlab paydo boʻlardi, oʻsib shon-shuhrat va qudratga ega boʻlardi. U yana halok boʻlardi, yonardi, kulga aylanardi va yana oʻzini tiklab ulgʻayardi. Shu sababli Termizning har safar qaytadan tiklanishi qadimgi oʻrnida yuz bermagan. Koʻhna Termiz yoki Kushon Termizi amudaryo boʻyida rivoj topgan boʻlsa, Chingizxon bosqinidan song u sharqroqda Surxondaryo boʻyida qad koʻtarib gullab-yashnaydi. XVIII asrning ikkinchi yarmidagi oʻzaro urushlar tufayli vayronaga aylangan Termiz XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab janubroqda Pattakesar qishlogʻi zaminida bunyod etiladi va ravnaq topadi⁵. Koʻhna Termiz obidalarini oʻzining takrorlanmasligi bilan hamisha qadimgi davr mualliflari, ilk oʻrta asr Xitoy sayyohlari va musulmon davri tarixchilarining diqqat-markazida boʻlib keldi. Termiz haqidagi qimmatli yozma maʼlumotlar VII asrda Xitoy sayyohi, buddizm monaxi Syuan Tzyan yozmalarida; IX-X asrlar arab muarrixlari Ibn Xordodbeh, Ibn Xavqal, Maqdisiy, Istahriy asarlarida; grek, arman, xitoy, fors, arab manbalarida; qadimiy "Shohnoma" dostonida, ulugʻ alloma Abu Rayhon Beruniy, arab sayyohi Ibn Battuta, Ispaniya elchisi Ryui Gonsales de Klavixo, venger sharqshunosi Herman Vamberilar asarlarida, oʻrta asr mutafakkirlari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Muhammad Bobur, Hofiz Abru, Anvari, Hofizi Tanish Buxoriy, Davlatshoh Samarqandiy asarlarida berilgan. Termiz tarixini oʻrganishga qiziqish ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridan yanada kuchaydi. Arxeolog olimlardan V. V. Bartold, D. N. Logofet, N. A. Mayev, V. V. Krestovskiy, I. V. Mushketov, A. A. Semenov, M. E. Masson, V. A. Shishkin, T. V. Grek, B. N. Kostalskiy, B. B. Piotrovskiy, V. A. Vyatkin, D. D. Bukinich, B. N. Zasiipkin, L. A. Albaum, G. A. Pugachenkova, E. V. Rtveladze, Ya. Gʻulomov, A. A. Asqarov va boshqalar Termizni shaxsan oʻrgandilar va ilmiy xulosalari bilan shahar tarixini boyitdilar. Koʻhna Termiz tarixini oʻrganishda 1926-1927 yillarda professor Denike boshliq Moskvaning Sharq xalqlari madaniyati muzeyi ekspeditsiyasi, 1936-1939 yillarda professor M. E. Masson rahbarligidagi Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi, 1961 yili B. Ya. Staviskiy boshchiligidagi Sharq

⁵ Деджимуратов Х. Термиз ва Чағониённинг ўрта асрларда тарихий географияси // «Мозийдан Садо», 2008. № 7.

xalqlari muzeyi va Davlat Ermitaji arxeologik ekspeditsiyasi, 1959 yildan professor G. A. Pugachenkova boshliq O'zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti ekspeditsiyasi, 1972 yildan professor V. M. Masson boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya Institutining Baqtriya ekspeditsiyasi, 1980 yildan akademik A. A. Askarov boshchiligidagi kompleks ekspeditsiyasi, 1993 yildan professor T. Shirinov boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya Institutining Pyer Lerish boshchiligidagi Fransiya Ilmiy tadqiqotlar Instituti Milliy Markazi va Kyudzo Kato boshchiligidagi Yaponiyaning Buyuk Ipak Yo'li Akademiyasi bilan hamkorlikda olib borayotgan ekspeditsiyalari katta ahamiyatga ega bo'ldi⁶. Natijada, miloddan avvalgi I ming yillik ortalaridan tortib, XVII asrga qadar Termiz shahri xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatini yorituvchi ko'plab arxeologik dalillar qo'lga kiritildi. Mazkur ekspeditsiyalar tarkibida Termiz Davlat Universitetining arxeolog olimlari ham faol ishtirok etib kelmoqdalar. Rivoyatlarga ko'ra, Termizni miloddan avvalgi VII asrda Baqtriyaning birinchi podshosi Zoroastr bunyod etgan. Miloddan avvalgi VI asrda bu yerlarni bosib olgan Eron Ahamoniylari Termizni juda ko'hna shahar deb ta'riflashgan. Shahar Aleksandr Makedonskiy bosqiniga qadar Ahamoniylar davlatiga bo'ysungan. Termizning tarixiga kirgan ilk nomlaridan biri Taramasta - Taramata (baqtrcha - daryo qirg'og'i) bo'lgan. Miloddan avvalgi 327 yili Aleksandr Makedonskiy Termizni zabt etib, shaharni o'z nomi bilan Aleksandriya deb ataydi. Aleksandr Makedonskiy hukmronligi tugaganidan keyin Grek-Baqtriya davlatining asoschisi Demetriy shaharga Demetris nomini beradi. Miloddan avvalgi I asrda Grek-Baqtria davlatining kushonlar tomonidan tor-mor qilinishi munosabati bilan Termiz, yozma manbalarning guvohlik berishicha, Ta-limmi shahri deb Xitoy manbalarida esa, Tu-mi (Tami) deb atala boshlaydi. Termiz asosan kushonlar davrida (mil. avv. I - mil. III asrlar) yuksak rivojlanadi⁷. Bu davrda Termiz Hindiston bilan g'arb, shimol, sharq mamlakatlari bilan bo'g'laydigan savdo yo'llaridagi yirik shaharga aylanadi. Termizda ko'plab budda ibodatxonalari va mo'la-maqbaralar quriladi. V-VI asrlarda Termiz yuz bergan urushlar oqibatida goh eftaliylar hukmronligi, gohida eron sosoniylari hukmronligi ostida bo'ldi. VII asrdab boshlab Termizni termizshohlar sulolasi boshqardi. 705 yili Termizni arab istilochilari zabt etdilar. IX -XII asrlarda Termiz yirik feodal shahar sifatida ma'muriy, savdo, hunarmandchilik va ilm-ma'rifat markaziga aylandi. Bu davrda shaharni o'rab turgan istehkom devorning uzunligi 10 km ni tashkil etib, 9 ta darvozasi bo'lgan. Shu davrda Termizda dunyoga mashhur bo'lgan shoirlar, allomalar, muhaddislar, diniy va dunyoviy olimlar yetishib chiqdi. IX-XII asrlarda Termiz G'aznaviylar, Saljuqiylar va Qoraxoniylar davrlari tasarrufida bo'ldi. 1206 yili Xorazmshoh Muhammad davlati ixtiyoriga o'tdi. 1220 yili Chingizxon qo'shinlari tomonidan 11 kunlik qamaldan song vayron qilindi. XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Termiz eski o'rnida emas, sharqroqda Sulton Saodat maqbarasi tevaragida yana rivojlandi. Temuriylar davlati tarkibiga o'tgandan keyin u gullab-yashnaydi va Shahri g'ulgula nomini oldi. Termiz Shayboniylar davlati tasarrufiga o'tgandan keyin ham rivojlanishda davom etdi. Kohna Termiz qal'asini qayta tiklash ishlari olib borildi. Minoralar, masjidlar va xonaqohlar qurildi. Ilm-ma'rifat rivoj topdi. XVIII asrning ikkinchi yarmida olib borilgan o'zaro janglar, taxt talashishlar tufayli Termiz butunlay vayron bo'ldi. Faqat Salovat va Pattakesar qishloqlarigina saqlanib qoldi. Masjidlar, minoralar va saroylar quladi. XVII asrning ikkinchi yarmida Surxondaryo bo'yidagi Ko'hna Termizdan janubda Pattakesar qishlog'i paydo bo'ldi. Qishloqning kengayib borishi hisobiga oradan bir asr o'tgandan keyin hozirgi Termiz shahri qad ko'tardi. Yangi Termizning vujudga kelishi Rossiya-Angliya munosabatlarining keskinlashgan davriga to'g'ri keldi-ki, Rossiya bu joylarda o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida O'rta Osiyoga harbiy yurishlarini boshlab yuborgan edi. 1873 yilning 28 sentyabridagi shartnoma Buxoroni Rossiyaga qaram davlatga aylantirgan bo'lsa, 1888 yil 23 iyundagi qo'shimcha shartnoma

⁶ Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш tadqiqotchilar talkiniida (конференция материаллари). – Самарканд. 2010. –В.84.

⁷ Турсунов С., Пардаев Т. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё маданияти. – Т., 2006. –В.32.

ruslarning Termizga kelishi va bu yerda istehkomlar qurish masalasini hal qilgan edi. 1893 yilning 15 yanvarida Termiz Buxoro amiri tomonidan Rossiya hukumatiga berilgan edi.

4. TERMIZ ARXEOLOGIK MUZEYINING ZALLARGA AJRATILISHI VA ULARNING TAVSIFI

1-zal. Surxon vohasi tosh davrida.

(Miloddan avvalgi 100- 3 ming yilliklar) Surxondaryo viloyatining mo``tadil iqlimi va atrof-muhiti bu yerda juda qadimdan inson manzilgoh-larining paydo bo`lishiga sabab bo`lgan. Janubiy Hisor tog` tizmasi turkumiga kirgan Boysuntog` va Ko`hitang tog`larida mavjud g`or va o`ngirlar ibtidoiy davr odamlari uchun makon bo`lib xizmat qilgan. Viloyat hududidagi eng qadimgi makon bu neandertal odamning manzilgohi bo`lib, Boysuntog`dagi Teshiktosh g`ori hisoblanadi. O`rta tosh ( mustye) davriga, ya`ni miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklarga oid bu g`ordan 3000 dona ibtidoiy odamlar yasagan keskich, taroshlagich va chopqi kabi tosh o`zaklar topilgan. Teshiktosh g`oridan ibtidoiy davr odamining tashqi ko`rinishini tiklashda muhim ashyoviy manba hisoblangan odam tana suyagi topilishi juda muhimdir. Boysundagi [Amir Temur](#) g`ori ham viloyatning eng qadimgi g`or makonlari turkumiga kiradi. Tosh asrining yuqori bosqichiga kelib (milloddan avvalgi 40-12 ming yilliklar), Janubiy Hisor tog` tizmalaridan boshlangan daryo va soy bo`ylari (To`palang daryosi havzasi ) insonlar tomonidan jadal o`zlashtirilgan.

(O`rta tosh asri, milloddan avvalgi 12-5 ming yilliklar) ga kelib insonlar nafaqat g`orlarda, balki pasttekisliklarda va daryo bo`ylarida ham makon qurib istiqomat qila boshlaganlar. Shu bois, viloyatning Ko`hna Termiz, Ayritom kabi yodgorliklarida ko`plab tosh qurollar uchragan. Bu davrga kelib, o`q-joy ixtiro qilingan, suyakdan bigiz va shu kabi boshqa qurollar yasalgan, mayda tosh (mikrolit) qurollar ko`paygan va yovvoyi hayvonlar xonakilashtirila boshlangan. O`rta tosh davri insonlar tasavvurlari va e`tiqotlarida keskin o`zgarish yuz bergan davr hisoblanadi. Bu jarayonni Markaziy Osiyoning eng qadimgi rang tasavvurlaridan bo`lmish Ko`hitangdagi Zarautsoy suratlarida kuzatish mumkin⁸. Zarautsoydagi tosh ayvon yuza qismida va shipida 200 ga yaqin qizil bo`yoqlarda bitilgan suratlar saqlanib qolgan. Bu lavhalarda ov marosimi, hayvonot olami va o`rta tosh davri odamlari tasvirlari o`z aksini topgan. Ba`zi bir olimlarning ta`kidlashicha, Zarautsoy suratlarida sehrli ov marosimi jarayoni aks etirilgan. Zarautsoy suratlari Markaziy Osiyoda san`atning, shu jumladan, tasviriy san`atning ilk namunasi hisoblanadi. Viloyatda neolit (yangi tosh), eneolit (mis - tosh) davrlari manzilgohlari Ko`hitang va Bobotog` hududlarida qayd etilgan bo`lib, bu makon va manzilgohlar ham jez (bronza) asrida vohada dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan.

2-zal. Surxon vohasi bronza davrida.

(Miloddan avvalgi III-I ming yillik boshlari) Miloddan avvalgi III-I ming yilliklarni qamrab olgan bronza (jez) asri Markaziy Osiyoda tub o`zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Bu avvalambor qalay, mis va qo`rg`oshin qorishmasidan tarkib topgan jez (bronza) qurollarining ixtiro qilinishi bilan bog`liq bo`lgan. Bronzaning kashf etilishi tufayli mehnat va ov qurollari takomillashgan, kulolchilik charxining ixtiro qilinishi hunarmanchilikning dehqonchilikdan alohida xo`jalik sifatida ajralib chiqishiga olib kelgan. Jez davriga kelib me`morchilik rivojlangan sug`orma dehqonchilikka asos solingan va mintaqalararo mol ayirboshlash yuzga kela boshlagan. Surxon vohasida jez asri uning so`nggi bosqichida, ya`ni miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi choragida boshlanib, miloddan avvalgi I ming yillik boshlarigacha davom etgan. Viloyat hududida so`ngi jez davriga oid eng daslabki o`rganilgan yodgorlik Muzrabod vohasidagi Ulanbuloqsoy etagida joylashgan Sopollitepa yodgorligi hisoblanadi. Shu bois Surxon vohasining so`ngi jez asriga mansub madaniyat "Sopolli madaniyati" deb nomlangan. Sopollitepa qal`a va uning tutash qismidan tarkib topgan, tarxi 82x82 m, ichki

⁸ Пидяев Ш. Сирли Кушонлар салтанати. – Т.: Фан, 1990. –В.19.

yoʻlakli uch qator mudofaa devorlari bilan oʻrab olingan. Qalʼada aholi jamoa-jamoa boʻlib yashab, ular 8 mahalladan tashkil topgan⁹. Miloddan avvalgi XV asrda Sopollida hayot izlari soʻnadi va bu joyda istiqomat etgan aholi Sheroboddaryo havzasiga, uning qadimiy irmoqlaridan biri - Boʻstonsoy irmoqlariga koʻchadi. Bu obida Jarqoʻton nomi ostida maʼlum boʻlib, 100 gektardan ortiq maydonni tashkil etadi. Jarqoʻton yodgorligi alohida muhofazalangan qalʼa-saroy va unga tutash qismdan, shu jumladan, voha uchun diniy markaz vazifasini oʻtagan ibodatxona, alohida-alohida tepaliklar shaklidagi turar joy binolaridan iborat mahallalar, kulollar ustaxonalari va xumdonlar, shuningdek, mozor-qabristondan iborat. Jarqoʻton yodgorligining umumiy maydoni, unda mahobatli inshootlarning mavjudligi, hunarmandchilikning taraqqiy etgani bu joyda shahar turkumidagi madaniyat mavjud boʻlganligini koʻrsatadi. Jarqoʻton yodgorligi Vatanimiz hududidagi eng qadimiy shaharning ilk timsolidir. Jarqoʻton olov ibodatxonasi bu turdagi inshootlarning eng qadimiysi boʻlib, keyinchalik Koʻhna Sharqning baʼzi bir markazlarida keng tarqalgan olov ibodatxonalarining shakllanishiga asos boʻlib xizmat qilgan. Miloddan avvalgi XV-X asrlar oraligʻida viloyatning baʼzi bir hududlarida, shu jumladan, Mirshodi vohasida, Surxondaryoning oʻrta va yuqori havzalarida jez davrining yangi qishloq va qalʼalari vujudga kelgan. Sopolli madaniyati sohiblari Vatanimiz hududida dastlabki sugʻorma dehqonchilikka asos solgan qabilalar hisoblanadi. Sopollitepa, Jarqoʻton, Molali kabi obidalarni qazish jarayonida topilgan don qoldiqlari, toshdan yasalgan mehnat qurollari, ipakdan toʻqilgan mato va hokazo ashyoviy manbalar buning isbotidir. Sopolli madaniyatiga xos hunarmandchilik namunalari turli-tuman boʻlib, jezdin quyma usulda yasalgan koʻzgular, oʻsmadon va koʻzachalar, tepa qismida hayvon bosh qismi tasvirlangan jez bigizlar, ilon va xochsimon shakldagi muhrlar, turli togʻ jinslaridan yasalgan munchoqlardan iborat. Bu davrda hunarmandchilikning ommaviy turlaridan biri - kulolchilik ham jadal taraqqiy topgan. Sargʻish va qizil loydan charxda yasali b maxsus xumdonlarda pishirilgan vaza va kosalar, koʻza va joʻmragli idishlar, turli hajmdagi xurmacha va xumlar oʻzining sifatiligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Sopolli va ayniqsa, Jarqoʻton yodgorliklarida loydan yasalgan but haykal, hayvonlar tasviri aks ettirilgan obrazlarning mavjudligi vohada jez davrining soʻnggi bosqichlarida badiiy sanʼatning ilk kurtaklari ham shallanganligidan darak beradi. Vohada soʻngi jez davrida istiqomat qilgan aholi Koʻhna Sharqning qadimiy sivilizatsiyalari, shu jumladan, Shumer, Akkad, Elam, Shimoliy Hindistonning Xarappa, Sibir va Qozogʻiston hududlarida istiqomat qilgan elat va qabilalar bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada boʻlganlar.

3-zal. Qadimgi Baqtriya madaniyati.

(Miloddan avvalgi I ming yillik boshlari-- miloddan avvalgi IV asr) Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi choragi oʻz tasarrufiga Surxon vohasi, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afgʻoniston yerlarini birlashtirgan Baqtriya oʻlkasi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida chuqur oʻzgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Bu jarayon bevosita temirdan mehnat qurollari yasashning ixtiro qilinishi bilan bogʻliq boʻlgan. Voha ahli temirni soʻnggi jez davridayoq, yaʼni miloddan avvalgi XIII-XII asrlar oraligʻida Koʻhna Sharqning qadimiy xalqlaridan biri - xettliklar bilan qariyb bir davrda kashf etgan. Oʻlkada temirdan ommaviy tarzda mehnat va harbiy qurollar yasash miloddan avvalgi VII-VI asrlarga toʻgʻri keladi¹⁰. Temirdan mehnat va harbiy qurol-yarogʻlar yasashning ixtiro qilinishi dehqonchilik, harbiy bilimlar va hunarmandchilik rivojiga katta ijobiy taʼsir koʻrsatgan. Bu jarayon, ayniqsa, ilk temir asri obidalari tuzilishida va qishloq xoʻjaligida yaqqol seziladi. Ilk temir asriga kelib vohaning dehqonchilik uchun qulay boʻlgan hududlari jadal oʻzlashtirilgan (Bandixon, Mirshodi vohalarida va Surxondaryoning quyi havzasi) va Muzrabod, Sherobod vohalari hududlarida yangidan bunyod etilgan shahar va qalʼalar hisobiga mavjud ekinzor yerlar kengaytirilgan. Soʻnggi jez davrida vohada dehqonchilik asosan soy va daryolar havzalarida olib borilgan boʻlsa, ilk temir asrida sunʼiy kanallar qazilib, yerlar oʻzlashtirilgan. Ilk temir asri Baqtriya zaminida ikki qismli shaharlarning toʻliq shakllangan davri hisoblanadi. Voha markazlari vasifasini oʻtgan

⁹ Пидяев Ш. Қадимий Термиз. – Т.: Фан, 2001. –В.25.

¹⁰ Турсунов С., Пардаев Т. Ўзбекитон тарихи ва маданияти – Сурхондарё маданияти. – Т.: 2006. –В.39.

Jondavlattepa (Sherobod vohasi), Hayitobod (Quyi Surxon havzasi), Qiziltepa (Mirshodi vohasi) ikki qismdan, ya'ni, arki-a'lo va ichki shahar kabi tarkibiy qismlardan iborat. Arki-a'loda voha hukmdorligining ma'muriy inshootlari va turar joy binolar joylashgan. Har ikki qism o'z navbatida mustahkam mudofaa istehkomlari bilan o'rab olingan. Bu davrda doirasimon (Tallashqon-2) yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidagi (Bandixontepa) mustahkam harbiy qal'alar ham barpo etilgan¹¹. Mirshodi, Qizilcha va Muzraboddagi Kuchuktepa vohaning ilk temir asriga mansub qishloqlari turkumidandir. Vohada qadimgi Baqtriya podsholigi davrida shaharsozlik va me'morchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham taraqqiy topgan. Mirshodi vohasidan topilgan toshdan yasalgan odam bosh qismi tasviri, Kuchuktepa, Qiziltepa, Tallashqon kabi obidalaridagi uch qirrali paykonlar, temir va toshdan yasalgan yarimoy shaklidagi o'roqlar, keli va kelisoplar shular jumlasiga kiradi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlar kulolchiligidan asosiy xususiyatlaridan biri - don va suv saqlashga mo'ljallangan ulkan xumlardan tortib mo'jaz sopol idishlarning aksariyat qismi charxda yasalganligi va bankasimon ko'rinishga ega bo'lganligidir. Qadimgi Baqtriya davlati (Baqtriya, Baqtriana-bu yunoncha nom, Baxdi - "Eronga nisbatan sharqda joylashgan o'lka") miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida Eron Ahamoniylariga qaramlikka tushib qolgan. Bu voqea miloddan avvalgi 545-539 yillar oralig'ida Kir boshchilik qilgan Eron qo'shinlarining Markaziy Osiyoning katta qismini bosib olishi oqibatida ro'y bergan. Shu sanalardan tortib, Makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) qo'shinlari tomonidan qadimgi Eron davlatining tor-mor etilishiga qadar Baqtriya Ahamoniylar Eronining katta satraplik (viloyat) laridan biri hisoblangan. Vohaning Qadimgi Baqtriya davriga mansub yodgorliklari miloddan avvalgi IV asrning 30-yillarida boshlangan Makedoniyalik Iskandar istibdodi oqibatida inqirozga yuz tutadi. Viloyatdagi Qadimgi Baqtriya davriga mansub 42 ta yodgorlikning aksariyat qismi Makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi qo'shinlar hujumi tufayli vayronaga aylangan.

4-zal. Baqtriyaning Makedoniyalik Iskandar va Ellinstik davlatlar davri madaniyati.

(Miloddan avvalgi 329 yil, miloddan avvalgi II asr o'rtalari) Miloddan avvalgi 329 yilda Makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi yunon- makedon qo'shinlarining Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) oralig'idagi hududni egallash uchun yurushi boshlandi. Bu harbiy muhoriaba so'g'dliklar, baqtriyaliklar va saklarning qattiq qarshilik ko'rsatishlariga qaramasdan, miloddan avvalgi 327 yilda Oks va Yaksart oralig'idagi katta bir qismni egallash bilan tugaydi. Bu sanadan boshlab Markaziy Osiyoning bazi bir viloyatlari kabi Baqtriya o'lkasi, shu jumladan, Surxon vohasi ham Makedoniyalik Iskandar vafotidan so'ng (milod. avv. 323 yil) Surxon vohasi Salavkiylar davlati tasarrufida bo'ladi¹². Miloddan avvalgi III asrning 50 - yillarida Baqtriyada Diodot asos solgan Yunon- Baqtriya shohligi vujudga kelib, bu davlat miloddan avvalgi II asrning o'rtalarigacha hukmronlik qiladi. Miloddan avvalgi II asrning 40-30 yillari oralig'ida Yunon- Baqtriya davlati sak, yuechji (yovchi) va toxar kabi elat va qabilalarning yurishi tufayli inqirozga uchraydi. Makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi yunon - makedon qo'shinlarining istibdodi qo'shni o'lkalar singari Baqtriyada ham tushkunlik va vayronagarchilikka olib kelgan. Vohaning harbiy jihatdan muhim bo'lgan va suv manbalariga boy bir necha shahar va qishloqlarida (Tallashqondagi Tallashqon II) hayot davom etgan. Salavkiylar va ayniqsa, Yunon-Baqtrya shohligi davrida kelib, Oks (Amudaryo) bo'ylarida joylashgan Ko'hna Termiz shahar sifatida shakllangan, kechuv joyida qal'a vazifasini o'tagan Kampirtepa, Hayitobodtepa, Jondavlattepa kabi shaharchalar kengaytirilib, Dalvarzintepa kabi shahar , qishloq va qal'alarga asos solingan (Oysaritepa, Oqtepa va hokazo). Miloddan avvalgi III- II asrlar Baqtriyada, butun Yaqin Sharq hududida bo'lgani kabi, qadimgi Sharq an'analari va yunon madaniyatining birikuvi va hamkorligi jarayoni kuchayib, o'ziga xos ellinistik madaniyatni yuzaga keltirgan. Bu jarayon shaharsozlik va memorchilikda, tangalar zarb qilishda, ya'ni pul- tovar minosabatlarining tarkib topishida , badiiy san'at va hunarmandchilikda yaqqol ko'zga

¹¹ Сурхондарё – Термиз. (Илмий тўплам) – Т.: Шарқ, 2004. –В.68.

¹² Пидеев III. Қадимий Термиз. – Т.: Фан, 2001. –В.29.

tashlanadi. Shimoliy Baqtrya (Surxon vohasi) ning yunon-baqtrya davri badiiy san'at turlaridan biri - terrakota haykalchalaridir. Bular yalang'och qiyofada yoki tovonlariga tushgan kiyimlari hilpirab turgan haykalchalar yoki ayol ma'budaning taxtda o'tirgan holatdagi tasvirlaridir. Bir qism haykalchalar fil suyagi yoki marmar toshdan yo'nilgan bo'lib, o'zinig nafisligi va yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Yunon-Baqtrya shohlari nomidan zarb etilgan tangalarning yuza qismida Diodot, Demetriy va boshqa hukmdorlarning ko'kragigacha tasviri tushirilgan bo'lib, aynan portret shaklidir. Yunon - Baqtriya podsholigi davri o'ymakorlik, shishasozlik, sangtaroshlik kabi hunarmandchilik turlarining ham taraqqiy etgan davridir.

5-zal. Qadimgi Baqtriyaning kushon davri madaniyati.

(Miloddan avvalgi I - milodiy III asrlar) Miloddan avvalgi I - milodiy III asrlarda hukmronlik qilgan Kushon podsholigi nafaqat Vatanimiz tarixida, balki butun Markaziy Osiyo tarixiy o'lkalari xalqlari iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan davlatlardan biri sanaladi. Kushon podsholigiga asos solgan qabilalar tarixiy manbalarda yuechji(yovchi) va toxarlar deb nomlangan. Miloddan avvalgi II asrning to'rtinchi choragida asosan Baqtriyada hukmron bo'lgan Yunon - Baqtriya shohligi Markaziy Osiyoning shimoliy hududlarida istiqomat qilgan yuechji qabilalarining yurishi tufayli inqirozga uchragan. Milodiy I asrga kelib, Baqtriyada besh katta urug' (Xyumi, Shuanmi, Guyshuan, Xeytun va Gaofu - yoki boshqa bir manbada Gaofu o'rnida Dumi) ga bo'linib yashagan yuechji qabilalari Kujula Kadfiz tomonidan Guyshuan- Kushon urug'i qo'l ostida yagona davlatga birlashtirilgan. Kushon davlatining shimoliy chegarasi Janubiy Hisor tog' tizmasiga kirgan Boysuntog' hisoblanib, Kushon hukmdorlari o'z davlatining shimoliy chegaralarini mustahkamlash borasida ham tinimsiz faoliyat ko'rsatganlar. Boysuntog'dagi " Temir darvoza" va uning bilan bog'liq mudofaa istehkomlari ana shunday inshootlardan biri hisoblanadi. Vima Kadfiz va ayniqsa, Kanishka I hukmronligida bu davlat tarkibiga Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlari ham kiritilgan va natijada Kushon davlati Ko'hna Dunyoning Rim imperiyasi, Parfiya va Xan Xitoyi bilan bir qatorda turgan buyuk davlatga aylangan. Milodiy III asr oxirida ichki ziddiyatlar va ayniqsa, sosoniylar Eroni qo'shinlarining Kushonshahr, ya'ni Baqtriyaning egallashlari tufayli Kushon davlati inqirozga yuz tutgan. To'rt asr davomida markazlashgan davlatning mavjudligi Baqtriyada, shu jumladan, uning tarkibiy qismi bo'lgan Surxon vohasida ham iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida yuksalishga olib kelgan. Miloddan avvalgi I - milodiy I asrlarda Surxon vohasi jadal o'zlashtirilgan, yirik kanallar qazilgan (Kattanahar), mavjud sug'orish inshootlari kengaygan (Zang kanali), yangi shaharlarga asos solingan (Zartepa) yoki Tarmita (Termiz) va Dalvarzintepa singari shaharlar hududiy jihatdan kengaygan. Kushon davri shaharlari loyiha asosida bunyod etilgan ikki qism, ya'ni arki a'lo va unga tutash asosiy shahar qisimlaridan iborat bo'lgan. Bu davr shaharsozligi Dalvarzintepa, Zartepa, Ko'hna Termiz va uning tarkibiy qismlari hisoblangan Qoratepa, Fayoztepa, o'rnidagi diniy inshootlar orqali yaxshi o'rganilgan. Surxon vohasining Kushon davri shaharlari ma'muriy, iqtisodiy markaz bo'lish bilan bir qatorda diniy markazlar vazifasini ham o'tagan (Ko'hna Termizdagi Qoratepa, Fayoztepa, Zo'rmola, Ayritom va Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalari)¹³. Kushonlar hukmronligining ilk bosqichidayoq, Ko'hna Dunyo davlat va xalqlarini iqtisodiy va madaniy jihatdan bog'lab turgan qit'alararo savdo yo'li, ya'ni Buyuk ipak yo'li to'liq shakllangan va bu xalqaro savdoda Kushon davlati ham muhim o'rin egallagan. Xolchayon, Dalvarzintepa, Ko'hna Termiz, Zartepa, Ayritom kabi obidalardan qazib ochilgan dunyoviy va diniy yo'nalishlarda yaratilgan haykallar, xilma-xil mo'jaz san'at turlari, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari o'zining takrorlanmasligi bilan ajralib turadi.

6-zal. Shimoliy Tohariston ilk o'rta asrlar davrida.

¹³ Пидяев III. Қадимий Термиз. – Т.: Фан, 2001. –В.71.

(Milodiy IV-VIII asrlar) Milodiy IV-asr oxiridan boshlab Baqtriya o'lkasi tarixiy manbalarda Tohariston deb yuritila boshlangan. Tohariston o'z tarkibiga Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlarini qamrab olgan bo'lib, hududiy jihatdan Kushon davri Baqtriya o'lkasiga teng bo'lgan. Milodiy III asr oxiri - IV asr davomida Tohariston Sosoniylar Eroni davlatiga qaram viloyatga aylangan. V asrda o'lkasi Xioniylar va Eftaliylar davlati tasarrufida bo'lgan. VI asrning 60-yillariga kelib, Eftaliylar davlatining Turk hoqonligi va Sosoniylar Eroni qo'shinlari tomonidan tor-mor etilishi tufayli Tohariston Turk hoqonligi davlati qo'l ostiga olgan. VII asrning 70-yillaridan Tohariston Arab qo'shinlari tomonidan bosib olina boshlagan. Bu jarayon VIII asrning 40-yillariga kelib o'lkani batamom Arab xalifaligi tarkibiga qo'shib olinishi bilan yakunlangan. V-VIII asrlar davomida Tohariston markaziy hokimiyatga rasman qaram ko'plab kichik mulkliklarga (ularning soni 27 ta) bo'lingan. Chag'oniyon, Kuftan, Termizshohlar mulkliklari shimoili - g'arbiy Tohariston, ya'ni Surxon vohasida joylashgan. Termizshohlar mulki Amudaryoning o'ng qirg'ogidagi yerlarni va hozirgi Angor, Termiz va Jarqo'rg'on tumanlarini o'z ichiga olgan. Bu mulklik Termizshoh tomonidan idora etilgan. Chag'oniyon (arabcha Saganian, xitoycha Chigo-Yan-Na) Chag'onrud (Surxondaryo) daryosining yuqori havzasidagi yerlarni, Hisor va Bobotog tog' oldi maydonlarini o'z tarkibiga olgan¹⁴. Chag'oniyon mulkligining markaziy shahri Chag'oniyon Qizilsuvning Surxondaryoga quyilishida joylashgan Budrach hisoblanadi. IV asrning oxirida, ayniqsa, Sosoniylar Eroni qo'shinlarining Shimoliy Tohariston yerlariga yurishi oqibatida dastavval markaziy shaharlar (Tarmita-Termiz, Dalvarzintepa) inqirozga yuz tutadi. VI asr boshlariga kelib, Shimoliy Toharistonning markaziy shaharlari qayta tiklanib, kengaya boshladi va yana bir qancha shaharlarga asos solinadi. VII-VIII asrlarga oid Xitoy yozma manbalariga ko'ra, Termiz mudofaa devorining uzunligi 10 kilometr (20 li), Chag'oniyonning markaziy shahri devori 5 kilometr (10 li) ga teng bo'lgan. Toharistonning V-VIII asrlar davri shaharlari Kushon davri shaharlari kabi asosan ikki, ya'ni arki a'lo va shahriston kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan¹⁵. Zangtepa (Qulog'itepa), Hayitobodtepa, Chag'oniyon (Budrach) larning arki a'losida asosan hukmdor saroyi va u bilan bog'liq inshootlar joylashgan. Markaziy Osiyoning V-VIII asrlardagi tarixiy va madaniy o'lkalari (So'g'd, Xorazm) shaharlari kabi Tohariston shaharsozligida juda murakkab me'morchilik uslublari qo'llanilgan. Bular turkumiga gumbazli xonalar, tomilarini g'ishtlar yordamida ravoqsimon uslubda yopib, uning tepasidan ikkinchi va uchunchi qavatini qurish va hokazolar kiradi. Toharistonlik me'mor ustalar shaharlardagi qabul marosimlari o'tadigan zallarni, mehmonhonalarni, kundalik hayotga mo'ljallangan honalarni bezashda somon suvoq, devoriy rang tasvir, mahobatli haykaltaroshlik va o'yma ganchdan juda mohirona foydalanganlar. Shimoliy Tohariston shaharlari kushon davri shaharlari singari diniy markazlar vazifasini o'tagan. Ko'hna Termizda qazib ochilgan g'orsimon binolar, Chordingak o'rnidagi buddaviylik inshooti, Zangtepadan topilgan qayin po'stlog'iga bitilgan matnlar shular jumlasidandir. V-VIII asrlar davri yodgorliklari turkumiga, shuningdek, ko'shk va hovlilar, savdo yo'llari yoqasida joylashgan bojxonalar (Sherobod tumanidagi Tavka qo'rg'oni) ham kiradi. Angor vohasidagi Kuyovqo'rg'on, Bolaliktepa, Yumaloqtepa kabi ko'shklardagi muhtasham qabulxona va mehmonxonalar dunyoviy mazmunda ishlangan devoriy rang tasvirlarga, rang-barang haykallarga, loy yoki yog'ochga o'yib ishlangan naqshin lavhalarga bezalgan. Ilk o'rta asrlar Shimoliy Toharistonda badiiy san'atning, ayniqsa haykaltaroshlik va devoriy rang tasvir san'atining yuksaklikka erishgan davridir. Toharistonning V-VII asrlar davri rang tasvir san'ati Tavka qo'rg'oni va Bolaliktepa devoriy suratlari orqali o'rganilgan. Tavka qo'rg'onidagi muhtasham bino xonasidagi devoriy suratlarda ov marosimi aks ettirilgan bo'lsa, Bolaliktepa ko'shkidagi zalda bazm marosimi tasvirlangan. Vohaning Kattatepa (Xosiyattepa), Zangtepa, Bolaliktepa, Hayitobod, Kuchuktepa kabi obidalari, Bittepa singari dafinalarini o'rganish jarayonida topilgan turli-tuman shisha idishlar, metallardan yasalgan o'smadon va

¹⁴ Деджимуратов Х. Термиз ва Чағониёнинг ўрта асрларда тарихий географияси // «Мозийдан Садо», 2008. № 7.

¹⁵ Аннаев Т. Сурхон воҳаси жаҳон маданият чорраҳасида. // Халқ сўзи, 2009. № 12.

mehnat qurollari tog` minerallaridan yasalgan shoda munchoqlar, qo`sh baldoqli krujka va metall buyumlarga taqlid etib yasalgan sopol idishlar ilk o`rta asrlar davrida shimoli-ga`rbiy Toharistonda hunarmanchilikning ham jadal rivoj topganligini ko`rsatadi

7-zal. Shimoliy Tohariston rivojlangan o`rta asrlar davrida

(IX-XIII asr birinchi choragi) VIII asrning 40-yillarida shimoliy Tohariston, xususan, uning markaziy shaharlari batamom Arab xalifaligi tarkibiga kiritiladi¹⁶. Bu davrdan to IX asr oxiriga qadar, ya`ni Shimoliy Toharistonning somoniylar davlati tasarrufiga o`tkazilishiga qadar bu o`lkada sodir bo`lgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayon musulmon dunyosi mamlakatlari bilan uzviy bog`liq holda rivojlandi. IX asr oxiridan to XIII asrning 20-yillariga qadar Termiz va Chag`oniyon Somoniylar, Qoraxoniylar, G`aznaviylar, Saljuqiylar, Qarluqlar, Guriylar va Xorazmshohlar davlatlari hukumronlik ostida bo`lib keldi. VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahrda, xususan, Termiz va Chag`oniyon yurtlarida musulmon madaniyatining shakllanish jarayoni yuz berdi. Bu jarayon ushbu yurtlarga islom dini, arab tili va yozuvining keng tarqalishi, musulmon dunyosi mamlakatlariga xos memoriy inshootlarning, jumladan, madrasa, masjid, karvonsaroy, minora, maqbara va boshqa turdagi madaniyat namunalari yuzaga kelishi bilan ajralib turadi. IX asrdan boshlab, Shimoliy Toharistonda shaharsozlik jadal taraqqiy etgan. Bu davrda o`lkada uch qismli shaharlar to`liq shakllangan. Termiz, Chag`oniyon kabi shaharlar tuzilishini o`rganishda yozma manbalar (arab-fors mualiflari Jayhaniy, Istaxriy, Muqaddasiy va holazolar) bilan bir qatorda bu shaharlar hududida keng ko`lamda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari xam juda muhimdir. Termizning 500 gektarlik shahar tusini olishi X asr oxirlarida sodir bo`lib, XI-XII asrlar davomida ravnaq topgan. Chag`oniyonning markaziy shahri Chag`oniyon (Qizilsuvning Surxondaryoga quyilish joyidagi Budrach yodgorligi) 6 kvadrat kilometrga teng maydonni egallagan. Bu shahar o`zining yuksaklikka erishgan davrida, ya`ni X-XI asrning birinchi yarmida Qizilsuvning har ikkala qirg`og`ini egallagan. IX asrdan boshlab shaharsozlikda pishirilgan g`ishtlar ommaviy ravishda ishlatilgan, uylar, saroylar, qabul zallari va masjidilarni bezashda murakkab islamiy va girih naqshlar keng qo`llanilgan. Ushbu zal peshtoqidan joy olgan Termizshohlar saroyini bezab turgan naqshin lavhalar o`zining betakrorligi bilan ajralib turadi. IX-XIII asrlar davomida Termiz va Chag`oniyonda hunarmandchilik ham ravnaq topgan (Surxondaryo – Termiz. (Ilmiy to`plam) – T.: Sharq, 2004. –B.73.) . Hunarmand ustalar mahallalari Termiz va Chag`oniyon shaharlari bilan bir qatorda qishloqlarda ham o`rganilgan. Chag`oniyon atrofidagi Garmalitepa qishloq joylaridagi shunday kulolchilar ustaxonalaridan biri bo`lgan. Termizda kulollar mahallasi bilan bir qatorda temirchi va shishasozlar mahallari ham bo`lgan. Temirchi ustalar mehnat qurollari, uy-ro`zg`or buyumlari bilan bir qatorda antiqa shamdonlar, qosh tergich va ko`zgularni quyma va bolg`alash uslubida yasaganlar. Misgar ustalar buyumlarga bezak berishda chizma naqsh usullaridan keng foydalanganlar. Budrach yodgorligi (Chag`oniyon shahari) ni qazish davomida topilgan mis idishlar xazinasi o`lkada misgarlikning taraqqiyotidan dalolat beradi. XI asrga oid og`irligi 300 kilogrammga yaqin bu xazina turli idishlardan, jumladan, katta-katta qozonlar, hovoncha, shamdon va ko`zalardan iborat (ushbu xazinaning eng noyob namunalari mazkur zalning markaziy qismida namoyish etilmoqda)¹⁷. IX-XIII asrlar davomida o`lka hunarmandlari ko`k, havorang shishadan qadahlar, bankasimon, butilkasimon idishlarni, kimyogarlar foydalanadigan kolbalar, grafinlar va pardoz-andoz buyumlarini juda mohirlik bilan yasaganlar. Zal ko`rgazmalarining katta qismi kulolchilik namunalari tarkib topgan. IX asr oxiridan Termiz va Chag`oniyonda sirlangan idishlar yasash o`zlashtirilgan. X asrning sopol idishlari, xususan, lagan, kosa, taqsimcha, ko`zalar yashil, jigarrang va sarg`ish sirlarga bo`yalgan. Bir tur idishlar esa oq ranga bo`yalib, sir ustidan kufiy uslubida bitilgan qora va jigarrang yozuvlar bilan bezalgan. XI-XII asrlarda idishlarning turlari

¹⁶ Деджимуратов Х. Термиз ва Чағониённинг ўрта асрларда тарихий географияси // «Мозийдан Садо», 2008. № 7.

¹⁷ Аннаев Т. Сурхон воҳаси жаҳон маданият чорраҳасида. // Халқ сўзи, 2009. № 12.

yanada boyib, turfa rangli bo'yoqlarga bezalib, naqshlari ustidan yaltiroq sir bilan qoplangan. Termizlik kulollar o'rta asrlarda simob ko'zachalar yasashda ham mashhur bo'lganlar.

8-zal. Termiz va Chag'oniynonning Amir Temur va Temuriylar davlati davri madaniyati.

(1370 yil - XVI asr boshlari) 1362-1370 yillar oralig'ida Amir Temur tomonidan Movarounnahrda markazlashgan davlatni tashkil etish jarayonida Termiz alohida o'rin tutgan. 1370 yilda Amir Temurning taxtga kelishi bayonida Amir Sayyid Baraka bilan birgalikda Termiz Sayyidlari- aka-uka xudovandzodalar Abu Mu'oli va Ali Akbarlar tilga olingan. Ayni shu yildan boshlab Sohibqiron va Termiz sayyidlari o'rtasida yaqin munosabatlar yuzaga kelgan. Amir Temur 1399 yilda Hindiston yurishidan va 1404 yilda g'arb tomonga amalga oshirilgan muhorabasidan qayta turib, Termizda qo'nib o'tgan. 1409 yilga qadar Termiz temuriy Xalil Sulton va undan so'ng Shohrux mirzo hukmronligi davrida Mirzo Ulug'bek davlati tasarrufida bo'lgan. 1220 yilda yuz bergan Chingizxon bosqini Termiz va Chag'oniynonga juda katta talofat yetkazgan. Bu yurtlarning iqtisodiyoti qayta tiklanib, madaniy ravnaq sari yuz tutishi bevosita Movarounnahrda Amir Temur davlatining tashkil topish davrida boshlangan. Shimolda Kattaqum va sharqda Solihobod qishloqlariga tutash bo'lgan Termiz katta kenglikni ishg'ol qilgan, ammo u mudofaa istejudliklari bilan o'rab olinmagan. Bu davr shahrining ta'rifi 1404 yilda Termiz orqali Samarqandga Amir Temur saroyiga Kastilya qiroli Genrix III nomidan elchi bo'lib borgan Rui Gonsales de Klavixo kundaligida o'z aksini juda yaxshi topgan: "Termiz juda keng va aholisi zich joylashgan, unda tashqi devor va mudofaa istejudliklari yo'q. Atrofi bog'rog', shaharni ko'plab anhorlar kesib o'tadi. Biz doimo xilma-xil mollar sotiladigan gavjum ko'chalar va maydonlardan o'tib bordik". Amir Temur davrida Chag'oniynon o'lkasining markaziy shahri Chag'oniynon ham o'z mavqeini saqlab qolgan. Arxeologik dalillarga ko'ra, XV asr oxiri-XVI asr boshlariga kelib Chag'oniynonda hayot shahristondan rabodga ko'chgan. Chag'oniynonning yana bir markazi Navand hisoblangan (Navand - chopar, choparlar shahri). Termiz, Chag'onoyon va Navand o'z zarbxonasiga ega bo'lib, ushbu zarbxonalarda Amir Temur va Temuriylar davlati hududida muomalada bo'lgan dirham (mis tangalar) qaytadan zarb etilgan (bu tangalardan namunalar zalning markaziy qismida namoyish etilmoqda). Surxon vohasidagi saksonga yaqin Sho'robqo'rg'on, Qutlug' shohtepa (Sherobod tumani), Navandaktepa (Uzun tumani) kabi yodgorliklarda XIV-XVI asrlarga mansub madaniy qatlamlar va ashyoviy manbalar mavjudligi qayd etilgan. Bu yodgorliklar qishloq, kechuv bo'yidagi qal'a, saroy, karvonsaroy va savdo yo'lidagi bojxonalar vazifasini o'tagan. Ushbu zal ko'rgazmalarida namoyish etilayotgan ashyoviy manbalar, xususan, jangchi himoya kiyimlari, sifat darajasi bilan Xitoy chinnisiga tenglashadigan lagan va kosalar, ko'za va chiroqlar, shaxmat donalari, memoriy koshinlar Termiz va Chag'oniynon amaliy san'atining Amir Temur davlati markaziy shaharlari madaniyati bilan hamohang taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

9-zal. Surxon vohasi XVI-XX asr boshlarida

XVI asrning boshlaridan XVII asrning birinchi yarmiga qadar Surxon vohasi Shayboniylar va Joniylar (Ashtarxoniylar) davlatlari qo'l ostida bo'lgan. XVIII asrning birinchi yarmidan XX asr boshlarigacha voha Buhoro amirligining tarkibiy qismi hisoblangan. Vohaning xonliklar davridagi muhim markazlaridan biri Termiz hisoblangan. Tarixiy manbalarda (Mahmud Ibn Vali) aytilishicha, "Termizning qishloqlari ko'p bo'lgan. Uning muhim bir qismini hukmdor qarorgohi, bozor, madrasa va hashamatli juma masjidi bor Salovat (Salihobod) tashkil etadi". XVIII asr boshida Sherobodga asos solingan. XIX asrga kelib, Sherobod Sharqiy Buxoroning yirik iqtisodiy va madaniy markaziga aylangan. XVI asr oxirida Chag'oniynon (Budrach)ning batamom tushkunlikka yuz tutishi oqibatida yangi shahar Qizilsuvning yuqori havzasida Dehinay (Denov) o'rnida shakllangan. XVII asr yozma manbalarida Denov mustahkam qal'adan iborat, gavjum bozorli, katta madrasa va xonaqoli shahar tusini olgan, deb ta'kidlangan. Navandak, Shahri safo, Javzi, To'folon, Vaxshivor, Basand (XVII asrdan Boysun), Mirshodi

Surxon vohasining xonliklar davridagi yirik manzillari hidoblangan¹⁸. Tashqi savdoda va Jayhun (Amudaryo) bo'ylab yuk tashishda Pattakesar, Termiz, Yorgoh Cho'chqaguzar va Qorakamar kechuvlari juda muhim bo'lgan. XVI asrdan to XX asr boshlariga qadar, ya'ni Amudaryoda chor Rossiyasi flotiliyasi tashkil bo'lgunga qadar bu guzarlardan muntazam foydalanilgan. Ushbu zal ko'rgazmalaridan ba'zi birlari maket (Qumqo'rg'on tumanidagi Iskandar ko'prigi) yoki fotodiorammalar (Sayid Otaliq madrasasi, Denov shahri; Murch bobo masjidi, Termiz shahri) shaklida o'rin olgan. Voha me'moriy yodgorliklari madrasa, karvonsaroy, masjid, maqbara, bekliklar qo'rg'oni, ko'prik, tog' va daryo bo'ylarda joylashgan qal'alar kabi turlarga bo'linadi. Surxon vohasining xonliklar davri hunarmandchiligi Ko'hna Termizning qal'a va qo'rg'on yoki ko'shk deb nomlangan qismlarida, Xotin rabodda (Termiz tumani), Sherobod begi qo'rg'onida, Jarqo'rg'ondagi Kultepa yodgorligida, To'polang daryosi yuqori oqimida joylashgan Yonikalon qal'asida, Kofrun qishlog'i (Boysun tumani) dagi Mozorattepa kabi yodgorliklarda o'tkazilgan arxeologik qidiruv natijalari orqali ma'lum. Xonliklar davrida vohada uchta asosiy hunarmandchilik markazlari (Boysun, Denov, Sherobod) mavjud bo'lgan. Ko'rgazmalarda namoyish etilayotgan jilokor koshin bo'laklari, temir va toshdan yasalgan mehnat va harbiy qurollar, zargarlik buyumlari ayni shu markazlar hunarmandchilik maktabiga xos osori-atiqalardir. Vohaning XVI-XX asr boshlari hunarmandchiligi turlaridan yana biri kulolchilik ham ayni shu markazlar kulol ustalari tomonidan yaratilgan. XVI asrga xos sopol buyumlarda Amir Temur va temuriylar davri an'analari davom etgan. Asr oxirida rangdor idishlar to'q zangori bo'yoqqa bezalib, naqshlar asosan garih va islmiy shakllardan tarkib topgan. XVII-XVIII asrlar kulolchilik buyumlarida mahsulot sifati pasayib, idishlarda to'q zangori va yashil ranglar ko'p qo'llanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сурхондарё – Термиз. (Илмий тўплам) – Т.: Шарк, 2004.
2. Аннаев Т. Сурхон воҳаси жаҳон маданият чорраҳасида. // Халқ сўзи, 2009. № 12.
3. Ботиров И. Қадимги Термизда будда таълимоти // "Сурхон тонги" рўзномаси, 2004. № 4.
4. Деджимуратов Ҳ. Термиз ва Чағониённинг ўрта асрларда тарихий географияси // «Мозийдан Садо», 2008. № 7.
5. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида (конференция материаллари). – Самарқанд. 2010.
6. Турсунов С., Пардаев Т. Ўзбекитон тарихи ва маданияти – Сурхондарё маданияти. – Т.: 2006.
7. Пидаев Ш. Сирли Кушонлар салтанати. – Т.: Фан, 1990.
8. Пидаев Ш. Қадимий Термиз. – Т.: Фан, 2001.
9. www.mcs.uz
10. www.advantour.com
11. www.museums.uz

¹⁸ Сурхондарё – Термиз. (Илмий тўплам) – Т.: Шарк, 2004. –В.59.

Ilovalar.

1-rasm. Termiz arxeologik muzeyi.



2-rasm. 2-zal. Kushonlar davriga tegishli tangalar va buyumlar.





